



## Yurtimizda dastlabki muzeylarning tashkil topishi va rivojlanishi.

Andijon davlat  
universiteti

2-bosqich talabasi

Sa'dullayeva  
Shahrabo

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda o'zining muayyan faoliyat turiga ega sohalardan biri bo'lib o'rin olgan muzeylar haqida ma'lumot berilgan. Maqolada muzayshunoslik sohasi xalqimiz hayotiga begona emasligi, tarixan o'ziga hos ravishda shakillanib kelganligi va muzayshunoslikning rivojlanishida bir qancha to'siqlarga, yo'qotishlarga uchraganligi bayon etildi. Muzeylar insonlar ma'naviyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Mustaqillikdan so'ng muzeylarni rivojlantirishda yurtimizda olib borilayotgan ishlar to'g'risida qisqacha faktlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muzeylar, muzalar uyi, Xalqaro muzeylar kengashining (ICOM), Turkiston muzeyi, O'zRFA, O'zbekiston xalqlari muzeyi.

Butun dunyo madaniyat va san'at ixlosmandlari uchun o'tmishdan "jonli ertaklar" haqida hikoya qiluvchi sokin va sirli go'shalar – muzeylar doim alohida e'tiborga loyiq bo'lib kelgan. Shu bois ham 18-may butun dunyoda muzeylar kuni sifatida nishonlanishi aynan muzeylar faoliyatiga qiziquvchilar uchun notanish ma'lumot emas. Har yili 18-may kuni dunyo bo'ylab muzey xodimlari o'zlarining professional bayramlarini – Xalqaro muzey kunini nishonlashadi. Bu ko'pchilik taxmin qilganidek, birinchi muzey ochilgan kun bilan bog'liq emas. Bu an'ana dastlab 1977- yilda, Xalqaro muzeylar kengashining (ICOM) navbatdagi yig'ilishida o'rta tashlangan taklif bir ovozdan qabul qilingandan buyon davom etib kelmoqda. 1978-yildan beri Xalqaro muzeylar kuni 150dan ortiq mamalakatda nishonlanib kelmoqda. Ushbu madaniy bayramning nishonlanish ko'lamiga bugun turli turli hududlarda turlicha ko'rinish kasb etadi. Ulardan biri so'nggi yillarda mashhur bo'lib kelayotgan "Muzeylar kechasi"dir. Dunyoning ko'plab shaharlarida, odatda 18-mayga yaqin shanbadan yakshanbaga o'tar kechasi ana shunday bayramlar tashkil etildi.[1]

Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o'rni muhimdir. Muzeylar tariximizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga xizmat qilib kelmoqda. Jumladan xalqimizning milliy ozodlik harakatiga bag'ishlangan eksponatlar va hujjatlarga muzeyda keng o'rin berilgani, qiziqarli ekanligi ko'pchilikning diqqatini tortmoqda. 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloniga bag'ishlangan ko'rgazmalar shu jihati bilan alohida o'rin tutadi. Unda ushbu voqeaning kelib chiqish sabablari, qo'zg'olon bostirilishi, ishtirokchilarning shafqatsiz jazolanishi aks etgan eksponatlarga hech kim befarq qoldirmaydi. Muzeylar- tariximizning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqimiz madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga



yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'рни beqiyosdir. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak muzeylarning dastlabki Vatani Yunoniston hisoblanadi. Muzalar – bu sevgi, go'zallik va she'riyat ilohalari bo'lib, ularning sharafiga Yunonistonda Gelikon tog'i atrofida har besh yilda bir marta bayramlar o'tkazilib, unda shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlarning o'zaro musobaqalari bo'lib turgan. Bu musobaqalarda yig'ilgan dastlabki kolleksiyalarni jamlash va saqlash maqsadida muzeylar tashkil etila boshlangan. Kritdagi Knoss saroy xazinasi (miloddan avvalgi XVI asr) Vanlar saroyi va Ink koinlarining arxivi (Xitoy miloddan avvalgi XIII-XII asrlar), Nineviya saroy kutubxonasi va boshqalar shular jumlasidandir. Birinchi muzey-taxminan miloddan avvalgi 290-yilda Aleksandriyada Ptolamey I tomonidan tashkil etilgan. Uning tarkibiga yashash va ovqatlanish xonalari, kutubxonahamda o'quv xonasi, botanika va zoologik bog'lar rasadxonalar kirgan. Keyinchalik unga tibbiyot va astronomik asbob- uskunalar, haykallar va byustlar ham ko'rgazmali qurollari sifatida qo'shib borilgan. Boshqa muzeylardan farqli ravishda u davlat ta'minotida bo'lib, unda ishlagan xodimlarga maoshlar to'langan. Bosh koin ya'ni director Ptolamay I tomonidan tayinlangan, kutubxonada 750 mingdan ko'p qo'lyozmalar saqlangan. Milodning 270-yilida bu muzey yong'in natijasida yo'q bo'lgan va kutubxonaga jiddiy zarar yetgan. Qadim zamonlarda ibodatxonalarda to'planib borgan noyob buyumlar keyinroq xususan miloddan avvakgi III asrga kelib, shaxsiy to'plamlarda jamlanib bordi. Varres, Sulla galeriyalari, Serviliy, Krase, Lukull, Sezar va boshqa to'plamlar so'zimizga misol bo'lib xizmat qiladi. Bunday to'plamlarning Vizantiya sobor va monastirlarida, keyinroq Fransiya, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar savorlarida saqlanishi odat tusiga kirib bordi. Yevropada ilmiy vazifalar yuklatilgan muzeyning paydo bo'lishi buyuk geografik kashfiyotlar, amalga oshayotgan davr – Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda hayvonot va o'simlik dunyosi namunalari, minerallar, geodeziya va astronomiya asboblari, etnografik ahamiyatga ega narsalar to'plangan. Tabiiy, ilmiy etnografik va tarixiy, badiiy, noyob narsalar jamlangan saroy to'plamlari shu davrga mansub. 17-18 asrlarda keyinchalik ko'plar davlat milliy muzeylari negizini tashkil qilgan tarixiy, arxeologik, tabiatshunoslik, san'atshunoslikka oid bo'lgan shaxsiy to'plamlar shakillandi. [3]

XIX asrga kelib dunyo miqyosida ko'plab yirik muzeylar vujudga keldi. 1819-yilda Madriddagi "Prado muzeyi", 1873-yilda Moskvadagi "Tarix muzeyi" 1852- yilda Sank-Peterburgdagi "Ermitaj" muzaylarini misol qilib kelib keltirishimiz mumkin. O'sha davrlarda ko'plab davlatlarda bo'lganidek, yurtimizda ya'ni O'rta Osiyoda ham katta muzeylar barpo etilgan. Toshkentda ilk muzey 1876-yilda ochilgan, u hozirgi "O'zbekiston tarixi dvlrat muzeyi" hisoblanadi. Yurtimizdagi dastlabki muzeyning faoliyati A.P. Fedchenko, N.A. Mayev, V.F. Oshanin, I.V. Mushketov kabi olimlarning sa'y-harakatlari va



tashabbuslari bilan shakillanib borgan. Va yana yurtimizda muzayshunoslik sohasi katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Bu yo'lda katta talofatlarni, ulkan sinovlarni va rivojlanishni boshdan kechirgan. Tarixdan ma'lumki X asrdagi Buxoro va Sheroz amirliklari kutubxonalarida insoniyat yaratgan hamma nodir kitoblar bo'lgan. Xorazmshohlar davridagi to'plangan nodir moddiy-ma'naviy boyliklari mo'g'ullar bosqinida yo'qotildi, kutubxonalar yondirildi. Natijada hayot 100 yillar orqaga chekindi. Oradan 150 yil o'tgach, ayniqasa Amir Temur musulmon dunyosining muqaddas kitobi bo'lmish "Usmon qur'oni" ning asl nusxasini Samarqandga keltiradi. Temur va Temuriylar kutubxonasi dunyoga mashhur edi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida ham nodir qo'lyozmalar kollaeksiyasini to'plab saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish odat bo'lgan. Toshkentda Jurabekning, Andijonda Dukchi Eshon shaxsiy kutubxonasi mashhur edi. Yuqoridagi bu misollar asosida O'rta Osiyo diyorida moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash asriy an'ana bo'lib, milliy xususiyatlarga rioya qilgan holda amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Moddiy va ma'naviy boyliklarning tashilib ketilishi xil-xil yo'llar bilan amalga oshirildi. Elchilarga sovg'a sifatida berildi, sayyohlar, savdogarlar orqali va bosqinchilik xarakatlari tufayli ular xorijiy mamlakatlarga o'tib ketdi. Masalan 1831-1833- yillarda Ost-Indiya kompaniyasining leytenant Aleksandr Byorns Buxoroda yashab qadimiy till va kumush tangalarni yig'adi va 200 dan ortiq nodir numizmatika kolleksiyalarni barpo etib, Britaniya muzeyiga taqdim etadi. Peterburgdagi Osiyo muzeyining direktori, sharqshunos olim X.D. Fren 1834-yil O'rta Osiyodan izlab topilishi mumkin bo'lgan sharq mualliflariga mansub "Yuz asarning xronologik ro'yxati" ni tuzib chiqadi. Orenburga bojxonasiga savdogarlar yo'llash va ko'rsatilgan qo'lyozmalarni Peterburgga yuborish haqida farmoyish beriladi. Bu O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy yodgorliklarining olib ketilishining birinchi bosqichi edi. 1869-yildan planli o'lja yig'ish choralari ishlab chiqildi. Soldat-ofitserlar qo'llariga Peterburgda yozilgan tavsiyanomalar berilib qanday narsalarga ahamiyat berishlik ko'rsatilgan edi. 1870-yilda Shahrisabz va Kitob bekliklaridagi qo'zg'olonni bostirish bahonasida 97 jild qadimiy qo'lyozmalar tortib olindi.

Tarqoq kolleksiyalarni birlashtirish ularni Peterburgga jo'natish uchun saralash markazi lozim bo'ldi. Bunday markaz muzey bo'lishi mumkin edi. Shu tarqqa Turkiston muzeyi tashkil topdi. Bunday maqsad "Qizil imperiya" davrida ham o'z kuchida qoldi. Yuqoridagi bugungi mustaqilligimizning naqadar azizligini, qadrliligi va muqaddasligini asoslab berdi. O'zbekistonda dastlabki muzeylarning shakillanishi va rivojlanishi haqida to'xtaydigan bo'lsak, 1876-yilda Toshkentda Turkiston muzeyi tashkil etildi. 1888-yil muzey nizomi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Unda muzey ixtisosi, vazifasi, ish xarakteri belgilab berildi. Muzeyga rahbarlik qilish besh kishidan iborat Nazorat komitetiga yuklandi. Ustavga muvofiq muzeyga geologiya, botanika, etnografiya, arxeologiya, numizmatika, sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha materiallar to'plash va saqlash huquqi berildi. 1919-yil Turkiston General Gubernatorligi qarorgohi, "oq uy" ning bir qismiga muzey ko'chiriladi. Bu O'zbekiston xalqalar muzeyi fondida 1978-yildayoq arxeologik materiallardan 52 mingtagacha buyum, numizmatikadan 43 mingdan oshiq tanga, pul medal va boshqa xil



pullar, etnografiyada 1800 tadan oshiqroq yodgorlik buyum bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Mahkamasining 21-aprel 1992- yil 23-sonli qarori asosida muzey tashkil etildi. U O'zRFA O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi deb nomlandi. Turkiston muzeyidan tashqari 1895-yilda Farg'ona muzeyi ochilib, u dastlab shahar xalq muzeyi deb atalgan. 1896-yilning 21-iyunida Samarqandda "Samarqand statistika komiteti muzeyi" (hozirgi O'zR madaniyat va san'at tarixi muzeyi) ekspozitsiyasining tuzilishi odatdagi konstkamera sifatida bo'lgan, unda har xil materiallar to'plangan. Ularni to'ldirishda rus havaskor kolleksionerlaridan A.I. Dobrosmislov, N.S. Likoshin, N.P. Ostroumov, A.L. Vyatkin mahalliy vakillardan Mirzo Buxoriy, A. Asqarovlarning faoliyati katta bo'lgan. [4]

Mahalliy muzeylar taraqqiyoti o'lkashunoslik harakati bilan bevosita bog'liq holda borgan. "O'lkashunoslik muzeylari" atamasi ham o'tgan asrning 20-yillari o'rtalarida keng tarqalgan. Ularning faoliyati, mazmun mohiyati o'lkashunoslikka oid nashrlarda muhokama etildi. O'lkashunoslik harakatini taniqli olimlar va madaniyat arboblari boshqarib, munazam ravishda o'lkashunoslik konfrensiyalarini o'tkazib turganlar. Rossiyada 1918-1923- yillari 150 dan ortiq muzey yaratilgan bo'lsa, Turkistonda 4 ta, jumladan Toshkentdagi san'at, Namangandagi shahar o'lkashunoslik, va Buxoro muzeylari tashkil qilindi. 1922-1926-yillarda muzeylarga tarixiy-badiiy qiymatga ega bo'lmagan buyum va ashyolarni, eskirgan narsa, takrorlanadigan fondlarni sotishga ruhsat berildi. Ushbu yangi iqtisodiy siyosat davrining majburiy chorasini hamda 1929- yili davlat muzey fondlari omborxonalarining tugatilishi haqidagi qaror antikvariat bozorini shakillanibgina qolmasdan, muzey kolleksiyalarining sotilishiga va tiklab bo'lmas yo'qotishlarga olib keldi. Urush yillarida ko'pgina muzeylar binolarini evakuatsiya qilgan muassasalar uchun bo'shatib berdi. Muzey tarmoqlari vaqtincha qasqardi. Mustaqillik yillarida mavjud muzeylarning ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitishi, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Hozirgi kunda respublikamizda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi kabi mashhur muzeylar faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonning o'tmish tarixini ko'z-ko'z qilib turadigan Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo'lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko'rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san'at asari ishlangan. Unga "Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor" deb nom berilgan. Yuksalish "qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan "Rosti-rusti", ya'ni "To'g'rilik najotdir" degan shiori oltin harflar bilan yozib qo'yilgan. "Faxrlanish" qismida esa Amir Temur va Temuriylar davri merosining avlodlardan avlodga o'tib kelayotganligi g'oyasi tasvirlangan. [2]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki millatimizning o'zligini anglashda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar tarixiy yodgorliklar maskani, adabiyot, san'at, urf-odatlar, hayot obrazlarimizning moddiy va maishiy jihatdan



bir ko'rinishi,ko'zgusi, tasviri. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash,sezish,o'rganish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Bobir Boltayev.Muzeyshunoslik fanidan uslubiy qo'llanma."Durdona" nashriyoti,Buxoro.2016
- 2.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>
- 3.Krushkol.Qadimgi dunyo tarixi."o'qituvchi". T.,1964
- 4.Sodiqova N.Madaniy yodgorliklari xazinas. – Toshkent:Fan,1981
- 5.N.Jo'rayev,A.Zamonov. "O'zbekiston tarixi" (Mustaqillik davri). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf uchun darslik. Toshkentv – 2018.

